

20-Avgust, 2026-yil

**TARAQQIYOT STRATEGIYASI SHAROITIDA FUQAROLIK JAMIYATI
RIVOJLANISHINING MA’NAVIY-AXLOQIY ASOSLARI**

*Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq
ta’limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Valiyeva Parizoda Dilshod qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Taraqqiyot strategiyasi sharoitida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy asoslari, jamiyatda demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda yuksak ma’naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, fuqarolik mas’uliyati, huquqiy madaniyat, vatanparvarlik, ijtimoiy hamjihatlik va insonparvarlik kabi tushunchalarning ahamiyati yoritilgan. Taraqqiyot strategiyasining ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ustuvor yo‘nalishlari fuqarolik jamiyatining yanada takomillashishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Taraqqiyot strategiyasi, fuqarolik jamiyati, ma’naviy-axloqiy asoslar, demokratik qadriyatlar, fuqarolik faolligi, huquqiy madaniyat, fuqarolik mas’uliyati, milliy qadriyatlar, insonparvarlik, ijtimoiy hamjihatlik.

Abstract: This article analyzes the spiritual and moral foundations of the development of civil society within the framework of the Development Strategy. It examines the establishment of democratic values in society, the enhancement of citizens’ socio-political activity, and the formation of high spiritual and moral qualities. Furthermore, the role of national and universal values, civic responsibility, legal culture, patriotism, social solidarity, and humanism in the development of civil society is highlighted. The priority directions of the spiritual and educational sphere of the Development Strategy are substantiated as an important factor contributing to the further improvement of civil society.

Keywords: Development Strategy, civil society, spiritual and moral foundations, democratic values, civic engagement, legal culture, civic responsibility, national values, humanism, social solidarity.

Аннотация: В данной статье анализируются духовно-нравственные основы развития гражданского общества в условиях Стратегии развития, вопросы утверждения демократических ценностей в обществе, повышения социально-политической активности граждан, а также формирования высоких духовных и нравственных качеств. Кроме того, освещается роль национальных и общечеловеческих ценностей, гражданской ответственности, правовой культуры, патриотизма, социальной солидарности и гуманизма в развитии гражданского общества. Приоритетные направления духовно-просветительской сферы Стратегии

развития обоснованы как важный фактор дальнейшего совершенствования гражданского общества.

Ключевые слова: *Стратегия развития, гражданское общество, духовно-нравственные основы, демократические ценности, гражданская активность, правовая культура, гражданская ответственность, национальные ценности, гуманизм, социальная солидарность.*

Hozirgi zamonda har qanday davlatning rivojlanishi faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki jamiyat ichidagi muhit, fuqarolarning faolligi va o‘zaro ishonchi bilan baholanadi. Ayniqsa, hozirda har bir jamiyat o‘z qadriyatlariga tayangan holda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uni mustahkamlash masalasi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati deganda, ko‘pincha turli tashkilotlar yoki tizimlar tushuniladi. Aslida esa bu tushuncha ancha keng va chuqur ma’noga ega. Bu tushuncha eng avvalo, odamlarning o‘z jamiyatiga befarq bo‘lmasligi, o‘z fikrini erkin bildirish, mas’uliyatini his qilishi va umumiy manfaat yo‘lida harakat qilishidir. Ya’ni, fuqarolik jamiyati bu oddiy tushuncha emas, balki har bir insonning ichki dunyosi, qarashlari va hayotga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liq jarayondir. O‘zbekiston sharoitida ham so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu yo‘nalishga qaratilganini ko‘rish mumkin. Taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilayotgan yangilanishlar inson manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yib, jamiyatni yanada ochiq, adolatli va faol qilishni maqsad qilgan va bu esa fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish faqat tashqi o‘zgarishlar bilan emas, balki ichki ya’ni, ma’naviy va axloqiy omillar bilan ham bog‘liq. Agar jamiyat a’zolarida halollik, adolat, hurmat va mas’uliyat kabi fazilatlar yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, hech qanday islohot kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, ana shu qadriyatlar mustahkam bo‘lsa, jamiyat o‘z-o‘zidan rivojlanadi. Shuning uchun ham taraqqiyot strategiyasi sharoitida fuqarolik jamiyati rivojlanishining ma’naviy-axloqiy asoslarini o‘rganish muhimdir. Bu nafaqat nazariy masala, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Har qanday davlat o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yar ekan, ularni amalga oshirish uchun aniq yo‘l xaritasiga ehtiyoj sezadi. Aynan shu nuqtai nazardan, taraqqiyot strategiyasi jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Chunki strategiya bu shunchaki hujjat emas, balki davlat va jamiyatning kelajagini belgilab beruvchi asosiy yo‘nalishdir. U orqali qaysi sohalarga ko‘proq e’tibor qaratilishi, qanday islohotlar amalga oshirillishi va qanday natijalarga erishilishi aniq ko‘rsatib beriladi. Bugungi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining eng muhim jihatlaridan biri – bu inson omiliga berilayotgan e’tibordir. Ya’ni, rivojlanish markazida iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas, balki insonning o‘zi turadi. Insonning huquqlari, erkinliklari, manfaatlari va munosib hayot kechirishi strategiyaning asosiy mezoniga aylangan. Bu esa jamiyatda adolat, tenglik va ijtimoiy himoya kabi muhim qadriyatlarning mustahkamlanishiga olib keladi. Taraqqiyot strategiyasi jamiyatni har tomonlama rivojlantirishni ko‘zda tutadi. U faqat iqtisodiy o‘rni emas, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, huquqiy tizim va fuqarolik faolligini ham qamrab oladi. Ayniqsa, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini

20-Avgust, 2026-yil

kengaytirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, davlat organlari faoliyatini xalq manfaatlariga xizmat qildirish kabi yo'nalishlar strategiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har qanday strategiya qog'ozda qolib ketmasligi, balki amalda o'z ifodasini topishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Agar belgilangan maqsadlar hayotga tatbiq etilmasa, ularning foydasi sezilmaydi. O'zbekiston tajribasida esa so'nggi yillarda strategik islohotlarning real natijalari ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, davlat boshqaruvida ochiqlik oshib borayotgani, aholi murojaatlariga e'tibor kuchaygani, fuqarolarning fikri va tashabbusiga ahamiyat berilayotgani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari, taraqqiyot strategiyasi jamiyatda yangicha fikrlashni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Odamlar endi faqat tomoshabin emas, balki faol ishtirokchiga aylanmoqda. Bu esa fuqarolik jamiyati rivojlanishi uchun muhim zamin yaratadi. Chunki kuchli fuqarolik jamiyati bo'lmagan joyda haqiqiy taraqqiyot haqida gapirish qiyin. Fuqarolik jamiyati tushunchasi ko'p qo'llaniladigan, lekin har doim ham to'liq anglab yetilmaydigan tushunchalardan biridir. Ko'pchilik uni faqat nodavlat tashkilotlar yoki jamoat birlashmalari bilan bog'laydi. Aslida esa fuqarolik jamiyati bundan ancha kengroq va chuqurroq mazmunga ega. Bu davlat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan, fuqarolarning ongli ishtirokiga asoslangan ijtimoiy tizimdir. Fuqarolik jamiyati mavjud bo'lgan muhitda inson o'zini shunchaki boshqariluvchi emas, balki jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladi. U o'z fikrini erkin bildiradi, jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmaydi va ularni hal etishda faol qatnashadi. Bunday muhitda davlat ham fuqarolar bilan hisoblashishga majbur bo'ladi, bu esa ochiqlik va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyatining asosiy tamoyillaridan biri – qonun ustuvorligidir. Ya'ni, jamiyatda hamma bir xil, qonun oldida teng bo'lishi kerak. Qonunlar adolatli bo'lsa va ular amalda ishlasa, fuqarolar o'z huquqlariga ishonadi va jamiyatga nisbatan faolroq bo'la boshlaydi. Aks holda esa befarqlik, ishonchsizlik va ijtimoiy passivlik kuchayadi. Yana bir muhim tamoyil – so'z va fikr erkinligidir. Inson o'z fikrini qo'rqmasdan, erkin ifoda eta olmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Chunki har qanday taraqqiyot, avvalo, fikrlar xilma-xilligiga asoslanadi. Turli qarashlar, tanqidiy fikrlar va takliflar jamiyatni oldinga siljitadi. Shu sababli fuqarolik jamiyatida har bir insonning ovozi muhim hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillari ham fuqarolik jamiyatining ajralmas qismidir. Jamiyatda imkoniyatlar teng bo'lmasa, ayrim qatlamlar o'zini chetda his qiladi. Bu esa umumiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Adolatli jamiyatda esa har bir inson o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ham muhim tamoyillardan biridir. Bu faqat saylovlarda qatnashish bilangina cheklanmaydi. Fuqarolar turli jamoat tashkilotlari, tashabbuslar, muhokamalar orqali ham davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aynan shu jarayon fuqarolik jamiyatining jonli va faol bo'lishini ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyatida mas'uliyat tushunchasi ham alohida o'rin tutadi. Erkinlik bor joyda mas'uliyat ham bo'lishi kerak. Agar inson faqat o'z huquqlarini talab qilib, majburiyatlarini unutsa, jamiyatda muvozanat buziladi. Shu sababli ongli fuqaro nafaqat o'z manfaatini, balki jamiyat manfaatini ham hisobga oladi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, ko'pincha e'tibor huquqiy tizim, institutlar yoki tashkiliy mexanizmlarga qaratiladi. Albatta, bular muhim. Biroq jamiyatning

20-Avgust, 2026-yil

haqiqiy rivoji faqat tashqi omillar emas, balki ichki ya’ni ma’naviy va axloqiy asoslar bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki har qanday jamiyat, avvalo, uni tashkil etuvchi insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasiga tayanadi. Ma’naviyat – bu insonning ichki olami, uning yaxshilik va yomonlikni farqlay olish qobiliyati, hayotga ongli yondashuvi demakdir, axloq esa shu ma’naviyatning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, insonning kundalik xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Agar jamiyatda ana shu ikki omil uyg‘un bo‘lsa, ya’ni insonlar nafaqat bilimli, balki tarbiyali va mas’uliyatli bo‘lsa, bunday jamiyat barqaror va mustahkam rivojlanadi. Fuqarolik jamiyatining eng muhim ma’naviy asoslaridan biri – halollikdir. Halollik mavjud bo‘lgan muhitda ishonch shakllanadi. Ishonch esa jamiyatni birlashtiruvchi kuch hisoblanadi. Agar odamlar bir-biriga, davlatga va qonunlarga ishonmasa, hech qanday rivojlanish haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Shu sababli halollik faqat shaxsiy fazilat emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning ham muhim shartidir. Yana bir muhim jihat – adolat tushunchasidir. Adolat bo‘lmagan jamiyatda tenglik bo‘lmaydi, tenglik bo‘lmagan joyda esa barqarorlik izdan chiqadi. Insonlar o‘z mehnati va harakati munosib baholanayotganini his qilsa, jamiyat hayotida faolroq ishtirok etadi. Aksincha, adolatsizlik kayfiyati ustun bo‘lsa, befarqlik kuchayadi. Shuning uchun fuqarolik jamiyati rivoji adolatli muhit bilan bevosita bog‘liqdir. Ma’naviy-axloqiy asoslar qatorida vatanparvarlik ham alohida o‘rin tutadi. Vatanparvarlik – bu shunchaki balandparvoz so‘z emas, balki insonning o‘z yurti taqdiri uchun mas’uliyatni his qilishi demakdir. Bunday tuyg‘uga ega inson jamiyatdagi muammolarga befarq qaray olmaydi, aksincha, ularni hal etishga intiladi. Natijada fuqarolik jamiyati faol va ongli a’zolar hisobiga mustahkamlanadi. O‘zaro hurmat va bag‘rikenglik ham muhim ma’naviy asoslardan hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat turli qarashlar, fikrlar va manfaatlar uyg‘unligidan iborat. Agar insonlar bir-birining fikrini hurmat qilmasa, jamiyatda ziddiyatlar kuchayadi. Bag‘rikenglik esa turli fikrlarni birlashtiradi, kelishuv va hamkorlikni ta’minlaydi, bu esa fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi uchun zarur shartdir. Yosh avlod tarbiyasi masalasi ham bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi yoshlar ertangi jamiyatning asosiy kuchiga aylanadi. Agar ularning ongida halollik, adolat, mas’uliyat va vatanparvarlik kabi qadriyatlar shakllantirilsa, kelajakda fuqarolik jamiyati yanada mustahkam bo‘ladi. Shu bois ta’lim tizimi, oila va jamiyat hamkorlikda yoshlarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashi lozim. Bundan tashqari, milliy qadriyatlar va an’analar ham fuqarolik jamiyatining ma’naviy poydevorini tashkil etadi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, hamjihatlik kabi fazilatlar jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantiradi. Ana shu qadriyatlar zamonaviy rivojlanish bilan uyg‘unlashgan holda fuqarolik jamiyatining yanada boy va barqaror bo‘lishiga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat tashkiliy o‘zgarishlar, balki jamiyatning fikrlash tarzini ham o‘zgartirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Eng muhimi, bu jarayonda “inson qadri” tushunchasi markazga qo‘yilib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlash asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Avvalo, davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda fuqarolar davlat organlari faoliyati

haqida erkin ma’lumot olish, o‘z fikr va takliflarini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lib bormoqda. Virtual qabulxonalar, xalq qabulxonalari, onlayn murojaat tizimlari orqali aholi bilan bevosita muloqot yo‘lga qo‘yilgani fuqarolik jamiyati rivoji uchun muhim qadam bo‘ldi. Bu orqali oddiy fuqarolar ham davlat boshqaruvida o‘z ovozigacha ega bo‘layotganini his qilmoqda. Shuningdek, nodavlat-notijorat tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolik jamiyatining muhim institutlari hisoblangan bu tashkilotlar jamiyatdagi turli muammolarni hal etishda, aholi manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etmoqda. Ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini soddalashtirish, davlat grantlari ajratish kabi chora-tadbirlar bu sohaning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ommaviy axborot vositalari erkinligini kengaytirish ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi muhim omillardan biridir. So‘nggi yillarda jurnalistlar faoliyatiga berilayotgan imkoniyatlar kengayib, tanqidiy fikrga nisbatan munosabat ijobiy tomonga o‘zgarmoqda. Bu esa jamiyatda ochiqlik muhitini shakllantirib, muammolarini yashirmasdan, balki ochiq muhokama qilishga zamin yaratmoqda. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Qonunlarni tushuntirish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, yoshlarni huquqiy jihatdan ongli qilib tarbiyalash bo‘yicha turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Chunki huquqini bilgan insongina uni himoya qila oladi va jamiyat hayotida faolroq ishtirok etadi. Mahalla institutining roli ham bu jarayonda sezilarli darajada kuchaymoqda. Mahalla nafaqat ijtimoiy muammolarni hal etish, balki fuqarolarni birlashtirish, ularni faollikka undash markaziga aylanib bormoqda. Ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, yoshlar va ayollar bilan ishlashda mahallaning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar ham fuqarolik jamiyati rivojiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlarning ta’lim olishi, kasb egallashi, o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ularni jamiyat hayotida faol bo‘lishga undaydi. Faol, bilimli va tashabbuskor yoshlar esa fuqarolik jamiyatining eng muhim tayanchi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fuqarolik jamiyati zamonaviy taraqqiyotning ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat siyosiy yoki huquqiy tizim sifatida, balki jamiyatning umumiy madaniyati, ong darajasi va ma’naviy holatini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu sababli ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalasi har bir davlat uchun ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Taraqqiyot strategiyasi sharoitida fuqarolik jamiyati rivojlanishi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki strategik yondashuv jamiyat taraqqiyotini aniq maqsadlar asosida yo‘naltirishga xizmat qiladi. Eng muhimi shundaki, bunday yondashuvda inson qadri, uning huquq va manfaatlar markaziy o‘ringa qo‘yiladi, bu esa jamiyatda adolat, tenglik, ochiqlik va ishonch muhitini shakllantirishga olib keladi. Ana shunday muhit mavjud bo‘lgan taqdirdagina fuqarolik jamiyati to‘laqonli shakllanadi va rivojlanadi. Fuqarolik jamiyati rivoji faqat tashkiliy yoki huquqiy islohotlar bilan chegaralanib qolmasligi ham alohida ta’kidlashni talab etadi. Bu jarayonning eng muhim jihati – uning ma’naviy-axloqiy asoslaridir. Agar jamiyat a’zolari halol, adolatparvar, mas’uliyatli va vatanparvar bo‘lsa, bunday jamiyatda fuqarolik institutlari ham samarali ishlaydi. Aks holda esa eng mukammal qonunlar ham kutilgan natijani

20-Avgust, 2026-yil

bermasligi mumkin, fuqarolik jamiyatining mustahkamligi, avvalo, insonning ichki dunyosi va qadriyatlariga bog‘liqdir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lida izchil va tizimli islohotlar olib borilmoqda. Davlat boshqaruvida ochiqlikni ta‘minlash, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, nodavlat tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash, ommaviy axborot vositalari erkinligini kengaytirish kabi chora-tadbirlar bu yo‘nalishda muhim natijalar bermoqda. Eng asosiysi, bu jarayonda oddiy fuqarolarning jamiyat hayotidagi ishtiroki ortib borayotgani sezilmoqda. Fuqarolik jamiyati – bu faqat institutlar yig‘indisi emas, balki inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifoda etuvchi tizimdir. Uning rivoji esa iqtisodiy, siyosiy va huquqiy omillar bilan bir qatorda, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga ham bevosita bog‘liqdir. Aynan ana shu omillar uyg‘unlashgan taqdirdagina jamiyat barqaror, adolatli va taraqqiy etgan jamiyatga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: Farmon. – Toshkent, 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida: Farmon. – Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.